

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGI TUSHUNCHASI VA IJTIMOY XAVFLILIGI

Kalandarov Djalaladdin Davronovich

Xorazm viloyati prokurorining katta yordamchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8232584>

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi tushunchasi va ijtimoiy xavfliligiga doir masalalar bayon etilgan bo'lib, mazkur masala yuzasidan olimlarning fikirlari tahlil etilgan. Bundan tashqari maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi, jinoyatchiligini tahlil qilish uning oldini olish umuman jamiyatda mavjud jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy bo'g'inini tashkil etishi borasida ham fikirlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlari: Ayb, bola, voyaga yetmagan, jinoyat, javobgarlik, jazo, huquqbuzarlik, ijtimoiy xavflilik, xulq-atvor.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi hamda jinoyatchiligini oldini olish, huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikning erta to'xtatish, ularning sabab va omillarini aniqlash bilan shug'ullanadigan subyektlarning vakolat hamda vazifalari belgilangan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"¹ gi qonunida ushbu faoliyatning asosiy vazifalari sifatida voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish, voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish vazifalari qo'yilgan.

Respublikamizda so'nggi yillarda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keskin ijobiy sifat o'zgarishlariga erishish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va sud-huquq islohotlari amalga oshirilmoqda. Belgilangan yo'nalishlarda boshlangan ulkan ishlarni davom ettirish, yangi pog'onaga ko'tarishda yosh avlodning ushbu jarayondagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi o'zgarishlar yoshlarga bo'lgan munosabatlarga yanada jiddiy yondashishni taqazo etadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismidir, shu bilan birga V.D.Malkov aytganidek, voyaga yetmaganlarning somatik, aqliy va axloqiy rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, ularning ijtimoiy yetukligi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu bizni uni kriminologik o'rganishning mustaqil obyekti sifatida o'rganishimizni taqazo etadi².

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi shu bilan birga jinoyatchiligini tahlil qilish uning oldini olish umuman jamiyatda mavjud jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy bo'g'inini tashkil

¹O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son.

² Криминология: Учебник для вузов / под ред. проф. В.Д. Малкова. 4-е изд., перераб. и доп. М. 2011. С. 356.

etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 50-60% retsidivistlar o'zlarining "jinoiy karera"sini voyaga yetmagan, hali o'smirlik paytidanoq boshlashadi. Shuning uchun, qancha erta voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va ularning g'ayriijtimoiy yo'lga qadam qo'yganini aniqlash, ularni oldini olish bu, davlatning jinoiy-huquqiy siyosati istiqbolda samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi masalasiga to'xtalishdan oldin, voyaga yetmagan shaxs kim? ular qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, xalqaro hamda milliy qonunchilikda ularning huquqiy maqomi kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Bolalar huquqbuzarliklarining oldini olishni tartibga soluvchi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarga, inson huquq va erkinliklariga doir asosiy xalqaro hujjatlar bilan bir qatorda, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (1989-yil 20-noyabr), Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga Qurolli mojaralarda ishtirok etuvchi bolalar to'g'risida fakultativ Protokol (2000-yil 25-may), Bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasiga qarshi bola huquqlari bo'yicha Konvensiyasiga qo'shimcha Protokol (2000-yil 25-may), BMTning Ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir Qoidalari (1986-yil 21-may), shuningdek, BMTning Ar-Riyod (45/112 rezolutsiyasi, 1990-yil 14-dekabr) ko'rsatmalari va boshqa hujjatlarni kiritish mumkin. Ushbu xalqaro hujjatlarning aksariyati O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan hamda milliy qonunchiligimizni shakllantirishda ulardagi asosiy tamoyil va qoidalaridan foydalanilgan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlarni kiritish mumkin.

2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi³ Qonunda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, hokimiyat va boshqaruv organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha vakolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari va sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan. 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi⁴ Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari va subyektlari, yoshlarning huquqlari, huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalalar tartibga solidi.

Voyaga yetmaganlar manfaatlari muhofazasini samarali tashkil etishda huquqiy tarbiya va oilani mustahkamlashning huquqiy muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mustahkam oila fuqarolik-huquqiy jamiyatning eng muhim asoslaridan biri bo'lib, voyaga yetmaganlar shaxs sifatida kamol topadigan ijtimoiy muhitdir. Bu yo'nalishdagi barcha aloqador soha mutaxassislari – pedagoglar, shifokorlar, sotsiologlar, huquqshunoslar va boshqalar faoliyatini shu maqsadga yo'naltirish dolzarb hisoblanadi.

tomon va subyektiv tomonni o'z ichiga oladi.

G'ayriijtimoiy xatti-harakatlar deb qonunda, voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodlanadigan xatti-

³ O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son.

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son.

harakatlari, shuningdek o'zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari nazarda tutilgan.

Shaxsni voyaga yetmagan deb topishda, jinoyat qonuni (JK, 81-modda) o'n sakkiz yoshga to'lmay jinoyat sodir etgan shaxslarni tushunish lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, sodir etilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortishning belgilangan eng kichik yoshi o'n uch yosh hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikka tortish uchun shaxsni voyaga yetmagan shaxs deb topish Jinoyat kodeksi qoidalariga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n uch yoshga to'lgan shaxs, lekin o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxs tushuniladi. Shaxsning muayyan bir yoshga (14, 15, 16, 17 dan 18 yoshgacha) to'lganligi ahamiyatga ega emas, lekin sudlar tomonidan jazoni individuallashtirishda hisobga olinishi lozim, yoshi kichik ayblanuvchilarga yengilroq jazo tayinlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qanday holda ham sud voyaga yetmagan shaxsga jazo tayinlashda belgilangan jazo turidan birini tanlashi kerak⁵.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi kriminologiya predmetiga kiruvchi asosiy masalalardan biri bo'lib, uning mazmunini batafsil aks ettiruvchi ta'rifini ishlab chiqish katta ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

V.E.Eminov voyaga etmaganlar huquqbuzarligining quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- 1) oila a'zolar, qarindoshlar va tanishlar bilan bog'liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning muhim qismi hisoblanadi;
- 2) voyaga yetmaganlar va ular jinoyatchiligining jabrlanuvchilari ham ko'pincha jinoyatchining kundalik mikro muhitiga tegishli bo'ladi;
- 3) jinoyatlarning aksariyati jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat deb ataladi, jinoyatlar asosan bezorilik sifatida tasniflanadi;
- 4) kechki soat 22:00 dan keyin voyaga yetmaganlar jinoyatlarning taxminan yarmi sodir etiladi;
- 5) jinoyatlar guruhda sodir etiladi;
- 6) voyaga yetmaganlar jinoiy guruh tarkibida jinoiy o'tmishga ega bo'lgan kattalar bo'lishi;
- 7) jinoyatlarni sodir etishda aniq motiv va maqsad mavjud emasligi va boshqalar⁶.

O'zbekistonda kriminologiya fani nazariyasiga oid adabiyotlarda mualliflar tomonidan, normativ-huquqiy hujjatlarda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi tushunchasiga doir aniq bir ta'rifni uchratib bo'lmaydi. Lekin, umumlashtirilgan bir qancha fikrlar mavjud. Jumladan, huquqbuzarlik deganda: sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik); ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi; (Mjtk 10-modda); ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish

⁵ Рустамбаев М. Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Том 2. Жазо ҳақида таълимот. Дарслик. 2-нашр, тўлдирилган ва қайта ишланган. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2018. – 294 б.

⁶ Криминология: учебник / отв. ред. В.Е. Эминов. М. 2017. С. 336-337.

deb topiladi; (JK 14-modda).

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuning 2-moddasida bir qator tushunchalarga oydinlik kiritilgan. Unga ko'ra:

voyaga yetmagan bu-o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

Huquqbuzarlik ijtimoiy ma'noda jamiyat, fuqarolar va jamoat birlashmalarining huquq va manfaatlariga xavf tug'dirishga qodir xulq bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini qiyinlashtiradi va ularning buzilishiga sabab bo'ladi. Huquqbuzarlik qasd yoki ehtiyotsizlik ko'rinishida bo'ladigan, huquq qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga yetkaziladigan moddiy va ma'naviy zarar yoki xavfli harakat va harakatsizlikdir. Huquqbuzarlik – huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Huquqbuzarlikning bir qancha belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: huquqbuzarlik jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli xarakterga ega; huquqbuzarlik huquqqa qarshi xarakterga ega; huquqbuzarlik – aybli qilmishdir; huquqbuzarlik faqat shaxslar tomonidan sodir etiladi; huquqbuzarlik shaxslarning irodasi va tafakkuriga bog'liq bo'lgan holda, ular tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladi.

Huquqbuzarlik yuridik fakt hisoblanadi, u o'z navbatida qo'riqlovchi xarakterga ega bo'lgan huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Huquqbuzarlikning tarkibi muayyan huquq normalarini sharhlashda, uning mazmunini ochib berishda hamda dunyoqarash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga egadir. U o'z ichiga to'rt muhim tarkibni qamrab oladi: obyekt, subyekt, obyektiv

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan fuqarolar o'n sakkiz yoshga to'lganda voyaga yetgan hisoblanadi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning yosh xususiyatlari Jinoyat kodeksida qat'iy belgilangan bo'lib, muayyan jinoyat uchun aniq yosh limitlari ko'rsatilgan.

Kriminologiyaga oid adabiyotda jinoyatchilik – muayyan hudud (mamlakat yoki uning ma'muriy-hududiy birligi)da, ma'lum davr (oy, chorak, yarim yil, yil)da sodir etilgan barcha jinoyatlar majmuini o'z ichiga olgan, belgilangan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ta'riflanadigan, yashirin xususiyatga ega, nisbatan ommaviy, obyektiv, tarixiy o'zgaruvchan, ijtimoiy xavfli, ijtimoiy-huquqiy hodisa deya ta'riflanadi.

Albatta, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi xususan, jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy jinoyatchilik kabi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi salbiy ijtimoiy hodisa ekanligi, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik holatlarining o'sishi jamiyat va davlat rivojini orqaga tortuvchi, fuqarolarning shaxsiy yashash, teng huquqligi, dahlsizligiga putur yetkazuvchi hodisa sifatida qaraladi.

Jinoiy-huquqiy hodisa sifatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi alohida o'rganilishni, xususan, voyaga yetganlar hamda yoshlar jinoyatchiligidan tabaqalashtirgan holda yondashishni taqazo etadi va shu orqali voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi tushunchasiga

oydinlik kiritamiz.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatlarining kriminologik xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin. O'smirlik – inson shaxsi shakllanadigan davr. Ushbu bosqichda shaxs nihoyatda o'zgaruvchan, ya'ni atrof muhitdagi salbiy ta'sirlarga juda beriluvchan bo'ladi. O'smirlarda o'zini nazorat qilish hissiyoti yetarli darajada rivojlanmaganligi, bunday hodisalar natijasida yuzaga keladigan "ijtimoiy turg'unlik" tufayli jamiyatga moslashuv nuqsonlari g'ayriijtimoiy qilmishlar ko'rinishida nisbatan oson namayon bo'ladi, ba'zan esa barqaror xulq-atvor sifatida mustahkamlanadi, vaqt o'tgan sari to'g'ri yo'lga qaytishi qiyinlashib boradi. Eng muhim tomoni, aynan shu davrdan boshlab shaxsiyat shakllanishni boshlab, kelajak yo'lini belgilab olish kabi tanlovni amalga oshirishlari lozim. Albatta, bu davrda o'smirlar, oila, jamiyat yordamiga muhtojdir. Ma'lum davrlarda, kriminologiyaning klassik, pozitiv va boshqa maktablari jinoyatchilikka teologik, psixologik, biologik, ijtimoiy hodisa sifatida qarashgan. Shuningdek, shaxs va jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik yosh faktoriga ham bog'liq ekanligi. Shaxs qancha erta huquqbuzarlik sodir etishi faqatgina subyektiv omillarga emas, tashqi ta'sirlarning ham roli muhim ekanligini sanab o'tishadi. Tashqi ya'ni obyektiv ta'sirlarning o'smirlar shaxsi va psixologiyasiga bo'ladigan ta'siri har doim ma'lum nazorat ostida bo'lishi lozim, bu o'rinda oila, mahalla va jamiyatning o'rne muhim.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi, xususan jinoyatchiligi qanday o'ziga xos xususiyatlar kasb etib borayotganligini bilish ham muhim. Kriminologlar, voyaga yetmagan mahkumlarning umumiy soni foizidan kelib chiqib, turli xil tibbiy ro'yxatlarda (alkogolizm, giyohvandlik, ruhiy kasalliklar va hokazo.) turadiganlar o'rtasida barqaror bog'liqlik borligini aniqlashdi⁷.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bilan oila va oilaviy munosabatlar o'rtasida yaqin bog'liqlik kuzatilmoqda, nizoli muhitda bo'lgan oilalar, ajrashishlar ko'p bo'lgan hududlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, bu kabi xususiyatga ega bo'lmagan hududlarda ushbu ko'rsatkich pastligini ko'rishimiz mumkin⁸.

Ma'lumki, bunday jinoyatlarga, shaxslar 14 yoshdan 18 yoshgacha sodir etilgan jinoyatlar kiradi. Ijtimoiy va psixologik, fiziologik yetuklikka erishish bir qator huquqiy oqibatlarining kelib chiqishiga olib kelganligi tufayli, voyaga yetmaganlarni voyaga yetganlardan qat'iy ajaratish mutlaqo muhim hisoblanadi. Bunday qat'iy chegaraning bo'lishi, odil sudlovni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular birinchi navbatda jinoiy xulq-atvorni shakllantirishning sababiy majmuasi va motivatsiyasida, shuningdek, uning darajasi va rivojlanish tendensiyalarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sanab o'tilgan xususiyatlar voyaga yetmaganlarning shaxsiy fazilatlari va ularning jamiyatdagi ijtimoiy va huquqiy maqomlari bilan ham bog'liq. Shu sababli, voyaga yetmaganlar voyaga yetganlardan ko'pgina shaxsiy xususiyatlar bilan ham, jinoiy xatti-harakatlar bilan ham farq

⁷ Криминология. – Алматы: Междунар. центр науч. исследований и правовой экспертизы РК, 2008. – с. 379

⁸ Опыт длящегося криминологического изучения личности во взаимодействии с социальной средой : сб. науч. тр. / редкол. : А. И. Долгова (отв. ред.), В. П. Мурашова, В. А. Серебрякова. – М., 1992. – 96 с; Жигарев, Е. С. Административная ответственность несовершеннолетних : понятие, виды и ее профилактика / Е. С. Жигарев. – М., 1992.

qiladilar⁹.

Kriminologik nuqtai nazardan, to'liq ijtimoiy yetuklikning boshlanish paytini qonunda yuridik voyaga yetganlikka nisbatan amalga oshirilgan aniqlik bilan belgilash mumkin emas. Aniqrog'i, ijtimoiy yetuklikka ya'ni jismoniy hamda ruhiy rivojlanish jarayoni hammadagi bir xil kechmaydi; kimdadir oldinroq kimdadir kech.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holatini odatda, voyaga yetmaganlar jinoyatlarining barcha jinoyatchilik ichidagi ulushi (%) ko'rinishida baholash qabul qilingan. Bu ulush, 2020-yilda respublika bo'yicha 13-15 yoshlilar o'rtacha 0,4 % ni, 16-17 yoshlilar 2,2 % ni tashkil qiladi¹⁰. Ushbu ko'rsatkichlarga asoslanib quyidagicha fikrlar paydo bo'ladi: voyaga yetmaganlar va voyaga yetganlar jinoyatchiligi haqidagi ma'lumotlarni to'la taqqoslab bo'lmaydi. Sababi, voyaga yetmaganlar voyaga yetganlar subyekti bo'ladigan ko'plab jinoyatlarni sodir etishmaydi, masalan, mansabdorlik bilan bog'liq jinoyatlar. Voyaga yetmaganlar sodir etgan muayyan jinoyatning aynan o'zini voyaga yetganlar tomonidan sodir etilganligi holati bilan solishtirish lozim. Balki, shundagina yuqoridagi ulush ortishi hamda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ijtimoiy xavfililigini aks ettirishi mumkin; voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi statistikasi har doim ham aniqlik kasb etmaydi. Bu o'ziga xos ravishda, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning latentligi bilan bog'liq.

Demak, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi – qonun bo'yicha voyaga yetmagan yoshdagi shaxs deb topilgan, aqli raso shaxs tomonidan sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Fikrimizcha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyati jinoyatlarning og'irlik darajasida emas, balki jinoyatchilik motividadir. Ushbu jihatdan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi boshqalaridan keskin farq qiladi. Albatta, ushbu holat, ularning, psixologik rivojlanganligi hamda ijtimoiy qadriyatlariga bilan bog'liq. Shuningdek, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining ijtimoiy xavfiligi, uning jamiyatga ijtimoiy ta'siri bilan bog'liq, ya'ni voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining miqdor ko'rsatkichi eng kam darajada bo'lgan taqdirda ham bu boradagi katta ijtimoiy yo'qotishlardan dalolat beradi. Misol uchun, butun bir mahalla yoki maktabda atigi bir nafar voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir qilgan bo'lsa ham, ushbu holat maktab yoki mahalla tizimida yoshlar ta'limi va tarbiyasi bilan ishlash borasida jiddiy kamchiliklar borligidan dalolat beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son.
2. Криминология. – Алматы: Междунар. центр науч. исследований и правовой экспертизы РК, 2008. – с. 379.
3. Опыт длящегося криминологического изучения личности во взаимодействии с социальной средой: сб. науч. тр. / редкол.: А. И
4. Долгова (отв. ред.), В. П. Мурашова, В. А. Серебрякова. – М., 1992. – 96 с.

⁹ Долгова А.И. Криминология: Учебник для вузов. 4-е изд., перераб. и доп. М. 2017. С. 795.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti.

5. Жигарев, Е.С. Административная ответственность несовершеннолетних: понятие, виды и ее профилактика / Е. С. Жигарев. – М., 1992.
6. Долгова А.И. Криминология: Учебник для вузов. 4-е изд., перераб. и доп. М. 2017. С. 795.
7. Рустамбаев М. Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Том 2. Жазо ҳақида таълимот. Дарслик. 2-нашр, тўлдирилган ва қайта ишланган. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2018. – 294 б.